

Andijon viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Andijon viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 53 525,8 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 51 353,5 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 1 755,9 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 416,4 mlrd so'mni tashkil qildi.

Andijon viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Asaka (5 122,6 mlrd so'm), Jalaquduq (4 946,2 mlrd so'm), Marhamat (4 872,5 mlrd so'm), Shahrixon (4 838,7 mlrd so'm), Paxtaobod (4 632,0 mlrd so'm) va Qo'rg'ontepa (3 821,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (281,8 mlrd so'm) va Andijon shahri (1 840,7 mlrd so'm), Xo'jaobod tumani (2 413,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Andijon viloyati	53 525,8	104,7
Andijon shahri.	1 840,7	105,9
Xonobod shahri	281,8	109,1
Oltinko'l tumani	3 056,1	104,9
Andijon tumani	2 817,7	100,9
Baliqchi tumani	3 598,3	102,2
Bo'ston tumani	2 902,5	101,7
Buloqboshi tumani	2 932,7	106,5
Jalaquduq tumani	4 946,2	105,5
Izboskan tumani	2 792,5	103,6
Ulug'nor tumani	2 657,0	106,4
Qo'rg'ontepa tumani	3 821,2	103,9
Asaka tumani	5 122,6	104,5
Marhamat tumani	4 872,5	110,7
Shahrixon tumani	4 838,7	104,5
Paxtaobod tumani	4 632,0	102,0
Xo'jaobod tumani	2 413,3	106,5

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Marhamat (110,7 %), Xonobod (109,1 %), Xo'jaobod (106,5 %), Buloqboshi (106,5 %) va Ulug'nor (106,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Andijon sh. (100,9 %), Bo'ston (101,7 %), Paxtaobod (102,0 %), Baliqchi (102,2 %) va Izboskan (103,6 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 50 263,3 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 29 236,8 mlrd so'mni (106,8 %), chorvachilik mahsulotlari 21 026,5 mlrd so'mni (101,6 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Asaka (4 971,2 mlrd so'm), Jalaquduq (4 772,0 mlrd so'm), Marhamat (4 612,9 mlrd so'm) va Shahrixon (4 550,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (279,0 mlrd so'm), Andijon shahri (1 478,3 mlrd so'm) va Ulug'nor tumani (2 224,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Marhamat (110,1 %), Xonobod shahri (109,0 %), Andijon shahri (107,9 %) va Ulug'nod (107,1 %) tumanlarida qayd etildi. Andijon (100,8 %), Baliqchi (101,0 %) va Bo'ston (102,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 59,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 34,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 6,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Asaka (2 237,0 mlrd so'm), Shahrixon (1 985,3 mlrd so'm), Jalaquduq (1 816,3 mlrd so'm), Paxtaobod (1 791,8 mlrd so'm) va Qo'rg'ontepa (1 623,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (218,2 mlrd so'm), Xo'jaobod tumani (747,3 mlrd so'm) va Bo'ston tumani (939,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Andijon shahri (112,4 %), Asaka (104,1 %), Oltinko'l (104,0 %), Marhamat (103,7 %) tumanlarida qayd etildi. Baliqchi (88,7 %), Andijon (100,1 %), Qo'rg'ontepa (100,3 %) va Shahrixon (100,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 207,0 ming tonna go'sht, 1 126,9 ming tonna sut, 874,3 mln dona tuxum, 2 168,0 tonna qirqib olingan jun yetishtirildi va 22 291,3 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni, sog'ib olingan sut – 100,8 % ni, olingan tuxum – 113,0 % ni, qirqib olingan jun – 109,1 % ni, hamda ovlangan baliqlar – 101,5 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 14,8 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 69,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 11,1 foizi fermer xo'jaliklari, 86,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-dekabr 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	207,0	102,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	30,6	155,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	144,3	90,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	32,1	140,2
Sut, ming tonna	1 126,9	100,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	124,9	173,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	973,7	95,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	28,3	119,5
Tuxum, mln. dona	874,3	113,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	184,6	173,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	602,5	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	87,2	116,4
Jun, tonna	2 168,0	109,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	265,0	150,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 873,0	104,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	30,0	250,0
Baliq, tonna	22 291,3	101,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	16 673,1	100,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	839,0	103,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4 779,2	104,8

Shu bilan birga, olingan tuxumning 21,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 68,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 12,2 foizi fermer xo'jaliklari, 86,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 74,8 foizi fermer xo'jaliklariga 3,8 foizi, dehqon va tomorqa xo'jaliklariga 21,4 foizi, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.



**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Andijon viloyati	206 990,0	1 126 891,0	874 314,0
Andijon shahri.	10 449,2	38 984,3	17 981,1
Xonobod shahri	2 602,4	5 113,2	8 774,5
Oltinko'l tumani	12 387,5	71 888,6	48 227,4
Andijon tumani	11 797,2	70 608,1	59 413,2
Baliqchi tumani	13 890,6	71 977,4	68 269,2
Bo'ston tumani	9 407,9	51 443,0	31 965,5
Buloqboshi tumani	13 436,1	52 318,2	26 368,9
Jalaquduq tumani	17 011,6	88 242,2	91 946,7
Izboskan tumani	9 436,7	87 665,3	30 370,2
Ulug'nor tumani	10 280,9	54 594,0	28 282,2
Qo'rg'ontepa tumani	13 887,2	101 195,2	46 288,0
Asaka tumani	25 694,5	101 551,8	135 818,9
Marhamat tumani	12 022,7	77 526,0	60 703,5
Shahrixon tumani	16 895,8	122 336,4	107 655,3
Paxtaobod tumani	19 795,5	98 713,1	85 629,9
Xo'jaobod tumani	7 994,2	32 734,2	26 619,5



Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Marhamat (3 262,4 mlrd so'm), Jalaquduq (2 955,7 mlrd so'm), Asaka (2 734,1 mlrd so'm), Paxtaobod (2 636,9 mlrd so'm) va Shaxrixon (2 465,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahrini (60,8 mlrd so'm), Andijon shahar (501,3 mlrd so'm) va Ulug'nor tumanini (1 180,6 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Xonobod shahar (132,3 %), Marhamat (112,6 %), Ulug'nor (110,5 %), Buloqboshi (109,4 %) va Xo'jaobod (108,9 %) tumanlarida qayd etildi. Andijon (101,4 %), Andijon shahrida (101,5 %), Bo'ston (102,2 %) va Paxtaobod (103,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	2 089 165,0	103,1
Andijon shahri.	45 809,3	100,5
Xonobod shahri	1 978,8	154,5
Oltinko'l tumani	125 812,7	101,4
Andijon tumani	103 079,8	100,0
Baliqchi tumani	135 685,3	100,1
Bo'ston tumani	185 751,8	100,5
Buloqboshi tumani	134 015,8	108,9
Jalaquduq tumani	202 582,2	106,0
Izboskan tumani	78 469,4	106,2
Ulug'nor tumani	54 930,7	100,9
Qo'rg'ontepa tumani	134 406,3	101,6
Asaka tumani	194 698,6	100,2
Marhamat tumani	268 706,7	107,3
Shahrixon tumani	162 140,9	105,2
Paxtaobod tumani	190 851,8	101,4
Xo'jaobod tumani	70 244,9	101,2

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Marhamat tumani (12,9 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Jalaquduq (9,7 %), Asaka (9,3 %), Paxtaobod (9,1 %), Bo'ston (8,9 %) hamda Shahrixon (7,8 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Xonobod (0,1 %), Andijon shahri (2,2 %) va Ulug'nor tumanlarida (2,2 %) kuzatildi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xonobod shahri (154,5 %), Bulqoboshi (108,9 %), Marhamat (107,3 %), Izboskan (106,2 %), Jalaquduq (106,0 %) Shahrixon (105,2 %), Qo'rg'ontepa (101,6 %), Oltinko'l (101,4 %) tumanlarida qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 182,1 ming boshga yetdi, (2025-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 0,4 % ga ko'p), sigirlar 410,1 ming boshga (0,2 % ga ko'p), qo'y va echkilar 1 600,6 ming boshga (1,0 % ga ko'p), parrandalar 15 468,2 ming boshga (40,7 % ga ko'p) yetdi.

2026-yilning 1-yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar ming bosh	1 182,1	100,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	86,0	102,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 083,2	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,9	111,3
shundan sigirlar ming bosh	410,1	100,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	38,5	107,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	364,2	99,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,4	116,4
Qo'y va echkilar ming bosh	1 600,6	101,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	117,8	107,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 465,8	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,0	122,9
Otlar bosh	8 057	106,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 103	110,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 810	104,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	144	142,6
Parrandalar ming bosh	15 468,2	140,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 967,2	106,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 405,3	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8 095,7	215,6

2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,3 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 88,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 91,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 12,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 34,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 52,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026-yilning 1-yanvar holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

(ming bosh)

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Andijon viloyati	1 182,1	1 600,6	15 468,2
Andijon shahri	29,0	54,7	298,4
Xonobod shahri	9,2	20,9	56,2
Oltinko'l tumani	82,6	79,9	327,6
Andijon tumani	68,8	91,4	777,5
Baliqchi tumani	90,1	82,7	4 640,6
Bo'ston tumani	54,8	50,4	319,9
Buloqboshi tumani	61,4	132,1	315,3
Jalaquduq tumani	104,5	131,0	864,5
Izboskan tumani	83,8	102,8	408,8
Ulug'nor tumani	48,3	63,6	803,1
Qo'rg'on tepa tumani	101,7	164,1	558,1
Asaka tumani	104,4	160,8	1 510,8
Marhamat tumani	98,0	156,4	604,6
Shahrixon tumani	104,4	126,7	932,7
Paxtaobod tumani	93,0	95,3	2 418,6
Xo'jaobod tumani	48,0	88,0	631,6

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://andstat.uz/uz/default/press-relizlar/12820-2025>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Mamajonov
74 224-80-00 (6110)

Manzil:

